



Lipidlar




- Suvda erimaydigan organik birikmalar **lipidlar** yoki yog'lar deb ataladi. Bu guruhga mansub birikmalar turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Bularan keng tarqalgani oddiy lipidlar — neytral yog'lardir. **hayvonlarning neytral yog'lari — yog'lar, o'simlik yog'lari esa — moylar deb ata ladi.** Moylar odatdagi haroratda suyuq bo'ladi.




- Yog'larning hujayradagi asosiy vazifasi energiya manbai sifatida namoyon bo'lishidir. Yog'larning kaloriyasi karbonsuvlarga nisbatan 1,5—2,0 barobar yuqori bo'ladi. 1 g yog'ning to'liq parchalanishi natijasida 38,9 kJ energiya ajralib chiqadi. Hujayradagi yog'ning miqdori 5—15% atrofida bo'ladi. Yog' to'qimalarining hujayralarida yog'ning miqdori 90% gacha boradi.







- Qishki uyquga moyil boʻlgan hayvonlar organizmida yogʻlar ortiqcha miqdorda toʻplanadi. Umurtqali hayvonlarning teri ostida ham yogʻlar toʻplanib, u issiqni saqlash vazifasini bajaradi. Yogʻlarning parchalanishidan hosil boʻladigan moddalardan biri suvdur. Bu metabolik suv choʻl hayvonlari uchun oʻta ahamiyatli hisoblanadi.



- Tuya o'rkachida to'plangan yog' energiya manbai emas (ko'pincha shunday noto'g'ri tu shuncha mavjud) balki suv manbai hisoblanadi. o'simliklarning urug' larida ham moylar zaxira modda sifatida ko'p miqdorda to'planadi. Bularga moyli o'simliklardan kunga boqar, zig'ir, g'o'za, soya, maxsar va bosh qa larni misol qilib ko'rsatish mumkin.



- Oddiy lipidlarning yana bir vakili mumlardir. o'simlik va hayvonlar bu moddadan suvni yuqtirmaslik maqsadida foydalanadi. Mumdan asalarilar uya quradi. Tirik organizmlarning hujayralarida murakkab lipidlar ham muhim ahamiyatga ega. Bulardan biri fosfolipidlar bo'lib, ular hujayra membranalari tarkibiga kiradi va ular membranalarning hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.





- Lipidlar oqsillar bilan birikib lipoproteinlarni hosil qiladi. Lipoproteinlar transport (tashish) va qurilish (membranalarni) vazifasini bajaradi.




HDL

- Murakkab lipidlarga glikolipidlar ham taalluqlidir. Bular hujayra membranalari tarkibida uchraydi. Lipidlarga yana bir guruh moddalar — steroidlar ham kiradi.





- Ular o'simlik va hayvon organizmlarida keng tarqalgan. organik kislota va ularning tuzlari, steroidlar, jinsiy gormonlar, vitaminlar, xolesterol va boshqalar shular jumlasidandir. Bular bir qator muhim fiziologik va bio kimyoviy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni bajaradi.



Savol va topshiriqlar

- *Qanday birikmalar lipidlar deb ataladi?*
- *Yog'lar hujayrada qanday vazifani bajaradi?*
- *Tuya o'rkachida to'plangan yog' nimaning manbai hisoblanadi?*

